

MIGRATSIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLAR

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich

Guliston davlat pedagogika institutining o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqlada migratsiyaning yuzaga kelishi sabablari, asosan qaysi omillar ortidan kelib chiqishi va uni nazorat qilish zarurati haqida fikr yuritiladi. Mamlakatlarning asosan qaysi xalqlar xisobidan qaysi sabablarga ko‘ra, soni ozgarishi mumkinligi haqida ham aytib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Aholining migratsiyasi, lotereya vizalari, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, majburiy migratsiya.

Aholining migratsiyasi to‘g‘risidagi rasmiy ma'lumotlar har doim ham hududlarda sodir bo‘layotgan mafkuraviy jarayonlarning to‘liq shaklini yoritib bera olmaydi. Aytmoqchimizki, aholining harakatlari ko‘pincha aniq maqsadlarga yo‘nalgan bo‘lib, ayrim holatlardagina favqulotda harakatni ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun, boshqa mamlakatlarga ta’lim olish uchun kelganlar, talabalar va tadqiqotchilar, sayyoqlik vizasi bilan kirib, noqonuniy ishlab qolgan migrantlar, ro‘yxatdan o‘tmagan muhojirlarni rasmiy ro‘yxatlarda aks etmaydi. Lekin ularning asl maqsadlari dastlab ham shu hududlarda uzoq vaqtga qolish bo‘ladi. Faqat qaysidir sabablarga ko‘ra noqonuniy yo‘l tanlashlariga majbur bo‘lishadi. Masalan, “2022 yilda AQSh fuqaroligini olgan rossiyaliklar soni rekord darajaga etdi. 2022 yilda 10 420 nafar rossiyalik AQSh fuqaroligini oldi. 10 yil davomidagi bu rekord ko‘rsatkich o‘tgan yillarda berilgan arizalarni ko‘rib chiqishning kechikishi natijasida shakllangan. Rossiyaliklar o‘tgan yili 97 ta investitsiya vizasini ham olgan (2021 yilda 9 ta, 2020 yilda 36 ta). Rossiyaliklar “lotereya vizalari” bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egalladi.” [1]

Migratsiyaning har xil turlariga quyidagilar kiradi:

- * tashqi va ichki
 - * sayyoqlar va qishloq xo‘jaligi ishchilarining mavsumiy migratsiyasi;
 - * rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish (urbanizatsiya)jarayonida yuzaga keladigan qishloqdan shaharlarga ko‘chish;
 - * rivojlangan mamlakatlarda ko‘proq tarqalgan shaharlardan qishloqqa ko‘chish (ruralizatsiya);
 - * ko‘chmanchilik va haj
 - * vaqtinchalik va uzoq muddatli
 - * chegara yoki tranzit
 - * noqonuniy
- Shakllar bo‘yicha tasniflash:

* ijtimoiy tashkil etilgan

* uyushmagan

Sabablarga ko‘ra tasniflash:

* iqtisodiy

* ijtimoiy

* madaniy

* siyosiy

* harbiy

Bosqichlar bo‘yicha tasniflash:

* qaror qabul qilish

* hududiy harakat

* moslashuv

Ichki migratsiyaning sabablari sifatida ish qidirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, turmush darajasini oshirish va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadini olish mumkin. Ichki migratsiya, ayniqsa, keng hudud, turli xil iqlim va iqtisodiy sharoitlarga ega mamlakatlarda keng tarqalgan. Buni farqlash uchun O’zbekistonga 2023 yilning birinchi choragida 914 kishi ko‘chib kelgan bo‘lsa, 4 063 kishi ko‘chib ketganligidan ko‘rish mumkin[2]. O’zbekistonliklar asosan Qozog‘iston va Rossiyaga ko‘chib ketganligida ko‘rish mumkin. Keng hududga ega bo‘lgan mamlakatlarda ishchi kuchining mavsumiy migratsiyasi muhim o‘rin tutadi — mavsumiy va qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun ishchi kuchining qishloqqa vaqtincha ko‘chishi va qishloqdan shaharga vaqtincha mavsumiy ko‘chishi ko‘p kuzatiladi. Lekin ushbu harakatning asosi faqat shu bo‘lib qolmasdan, xalqlar o‘zining etnik tarixiy hududlariga qaytish holatlari ham keng kuzatilmoxda. Masalan, 6 mingdan ortiq etnik qozoq o‘z tarixiy vataniga qaytib, kandalar maqomini oldi. Qozog‘iston Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga ko‘ra, yil boshidan buyon mamlakatga 6144 nafar fuqaro kelgan. Ularning asosiy qismi, O’zbekiston – 53,9%, Xitoy - 19,1%, Rossiya - 12,1%, Turkmaniston - 5,6%, Mo‘g‘uliston - 5,7%, Boshqa davlatlardan - 1%. 1991 yildan beri Qozog‘istonga 1 million 112 ming etnik qozoq qaytib kelgan.[3]

Xalqaro migratsiyaning asosiy sababi iqtisodiy: dunyoning turli mamlakatlarida bir xil ish uchun olinishi mumkin bo‘lgan ish haqi darajasidagi farq. Muayyan mintaqada ma'lum bir kasb bo‘yicha mutaxassislarning etishmasligi ushbu kasb uchun ish haqini oshiradi va shunga mos ravishda migrantlar oqimini rag‘batlantiradi. Ishchi kuchining tashqi migratsiyasi uchun uning tarkibida yuqori malakali mutaxassislar ulushining ko‘payishiga olib keladi. Migratsiyaning ushbu shakli 1930-yillarda, AQShga fashistlar Germaniyasidan qochqin olimlarni yalpi harakatidan boshlangan. Hozirgi bosqichda yuqori malakali mutaxassislarning migratsiyasining asosiy

yo‘nalishlari Sharqiy Evropa mamlakatlaridan AQSh, Kanada va G‘arbiy Evropaning bir qator mamlakatlariga to‘g‘ri keladi.

Migratsiya qisman urushlar (Iroq, Bosniya, Afg‘oniston, Suriyadan AQSh, Buyuk Britaniya va Evropaga ko‘chish), siyosiy mojarolar (Zimbabwe dan AQShga ko‘chish) va tabiiy ofatlar (vulqon otilishi sababli Montserratdan Buyuk Britaniyaga ko‘chish) kabi sabablarga bog‘liq.

Majburiy migratsiya avtoritar rejimlarni ijtimoiy nazorat qilish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, ixtiyoriy migratsiya esa ijtimoiy moslashuv vositasi va shahar aholisining o‘sishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun migratsiyaning qaysi hududdan qaysi hududga qarab yo‘nalganligi va o‘sha hududlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik vaziyatdan kelib chuqub xulosa berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, migratsiya bu xalqlarning tarixiy kasbi sifatida qaralishi kerak. Demak bu uzluksiz jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonni baholash, rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Har bir mamlakat o‘z hududiga kirib keluvchilar chiqib ketuvchilar oqimiga mutanosib ravishda harakat yo‘nalishlarini ham belgilab borishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/03276878>
2. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/38345-demograficheskaya-situatsiya-yanvar-mart-2023-goda-2>
3. https://t.me/burchak_uz/24844
4. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. IQRO JURNALI, 2(1), 628-631.
5. Akbarjonovich, M. A. (2023). AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2045-2047.
6. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4292>